

Borland®

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Delphi™

***Zamonaviy dasturlash tillari
fanidan amaliy mashg'ulot
ishlanmasi***

Navoiy-2010

Ushbu qo`llanma akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o`quv yurtlari talabalari hamda mustaqil foydalanuvchilar uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchilar:

dots. Ro`ziyev R.A., o`q. Mirsanov O`.M.

Taqrizchilar:

t.f.n. Nosirova Sh., f.-m.f.n. Xudoyorov Sh.

Kirish

O`quvchi yoshlarni informatika fanidan bilimli qilib tayyorlashni informatika fanining asosiy qismi hisoblangan zamonaviy dasturlash tillari yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Zamonaviy dasturlash tillarining afzallik tomonlari shundan iboratki, o`quvchida bu tillarni o`rganishda bir qancha kichkina dastur va amaliy paketlarni o`rganish zaruriyati tug`iladi, shu izlanishlar natijasi o`quvchining bilim saviyasini oshishiga yordam beradi.

Hozirgi paytda zamonaviy dasturlash tillaridan biri hisoblangan Delphi dasturlash tilidan keng foydalaniladi. Delphi dasturlash tili - bu Windows muhitida ishlashga mo`ljallangan bo`lib, u 1995-yilda Borland kompaniyasi dasturhilari guruhi Chak (Chuck) va Denni (Danny) tomonidan yaratilgan. Mazkur dastur o`zining ba`zi bir xususiyatlari bilan boshqa dasturlash tillaridan ajralib turadi. Shu sababdan bugungi kunda Delphi dasturlash tili akademik litsey, kasb- hunar kollejlari hamda oliy o`quv yurti fan dasturlariga kiritlgan. Ammo, Delphi dasturlash tilini o`qitishda o`zbek tilining lotin alifbosidagi o`quv adabiyotlarning yetishmasligi seziladi. Shuning uchun ushbu uslubiy qo`llanma o`quvchi- yoshlarning foydalanishi uchun tavsiy etilmoqda. Qo`llanma Delphi dasturlash tilini o`rganishni boshlayotganlarga mo`ljallangan bo`lib, u uchta bobdan iborat: birinchi bobda Delphi dasturlash tili va uning imkoniyatlari, ishlash texnologiyalari haqida qisqacha ma`lumot berilgan; ikkinchi bobda Delphi dasturlash tilida matematik masalalarni yechish (chiziqli, tarmoqlanuvchi, takrorlanuvchi) bo`yicha misollar keltirilgan; uchinchi bobda Delphi dasturlash tilida grafiklar va massivlarga oid bir nechta misollar berilgan.

I BOB. DELPHI DASTURLASH TILI VA UNING IMKONIYATLARI

1.1. Delphi dasturlash tili haqida ma'lumot

Delphi dasturlash tili - bu Windows muhitida ishlab chiqilgan bo'lib, 1995 yilda Borland kompaniyasi guruhi dastur tuzuvchilari Chak (Chuck) va Denni (Danny) tomonidan yaratilgan.

Bu til o'zining keng qamrovli imkoniyatlariga egaligi bilan birga, boshqa dasturlash tillaridan o'zining ba'zi bir xususiyatlari bilan ajralib turadi. Borland Delphi ning paydo bo'lishi dasturlashni rivojlantirish tarixida yorqin ko'rinish bo'ldi. Delphi ning dunyoga kelishiga quyidagi tendensiyalar sabab bo'ldi:

- Windows uchun dasturlash va komponentlar texnologiyasi;
- masalalarni yechish uchun ob'ektga yo'naltirilgan usul;
- komponentlar texnologiyasiga asoslangan ilovalarni tez yaratishning vizual muhitlari;
- interpretatsiyadan emas, kompilyatsiyadan foydalanish. Bu shundan iboratki, interpretator bilan ishlashga qaraganda kompilyator bilan ishlash tezligi o'n martalab ustunlikka ega bo'ladi;
- universal usullar yordamida ma'lumotlar bazasi bilan ishlash imkoniyatlarining mavjudligi, masalan, lokal va shu bilan bir qatorda server ma'lumotlari faylidan mijoz - server arxitekturasiga yoki ko'p bosqichli sxemasiga o'tishni ta'minlash.

Borland Delphi yuqorida bayon etilgan tendensiyalarni joriy etish maqsadida yaratilgan. Ammo, uning eng asosiy elementi Object Paskal tili bo'lib hisoblanadi.

Delphi – bu bir qancha muhim texnologiyalar yig'indisidir, ya'ni:

- mashina kodiga o'tkazuvchi yuqori unumdorlikka ega bo'lgan kompilyator mavjudligi;
- komponentlar ob'ekt-orientirlashtirilgan modelga egaligi;
- dasturlarni vizual tarzda yaratish (tuzish) imkoniyatining mavjudligi;
- ma'lumotlar bazasini yaratish (tuzish) imkoniyatlarining yetarliligi.

Bu dasturlash tili ob'ekt - orientirlashtirilgan tillar majmuiga kirib, 1995 yildan hozirgacha bir qancha avlodlari yaratilgan va ularga quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

Delphi 1.0, Delphi 2.0, Delphi 3.0, Delphi 4.0, Delphi 5.0, Delphi 6.0, Delphi 7.0, Delphi 8.0

Dastur yuqori unumdorlikka va tezlikka ega bo'lgan kompilyatorga ega. Har bir yangi versiyasi yaratilganda dasturlash tiliga qandaydir qulaylik yoki imkoniyatlilik kiritildi. Ma'lumotlarga ko'ra hozirgi vaqtda bu eng yuqori tezlikka ega bo'lgan kompilyatordir. Masalan: u 486 DX 33 da 1 daqiqada 120 ming qatordan ortiq dastur matnini kompilyatsiya (mashina kodiga o'tkazish) qila oladi. Bundan tashqari Delphi dasturlash tili vizual instrumentlar yig'indisiga ega bo'lib, u esa dasturlash jarayonini yanada osonlashtiradi. Dasturchi dastur tuzish jarayonida xuddi rassom kabi komponentlar palitrasidagi tayyor tugmachalarni (ob'ektlarni) dasturga joylashtirishi mumkin. Mahsulotning standart turi ikkita bazaviy sinflardan tashkil

topgan. Dasturlash tili qobig`i korporativ ma'lumotlar bazasiga ulanishni qo'llab quvvatlovchi (podderjka), dastur tuzishni tezlashtiruvchi RAD (Rapid Application Development) vizual asboblari (instrumentlar) interfeysiga ega. VCL – visual komponentlar kutubxonasi foydalanuvchining standart ob'ektlari, ma'lumotlarni boshqarish ob'ektlari, grafik ob'ektlar, multimedia ob'ektlari, muloqot ob'ektlari, fayllarni boshqarish ob'ektlari, DDE va OLE larni boshqarish ob'ektlaridan tarkib topgandir. Ma'lumotlar bazasi ob'ektlari SQL ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi asosida Borland Database Engineni to'liq o'z ichiga oladi. Shuningdek, dasturlash tili tarkibiga Borland SQLLink ham kiradi. Bu esa Oracle, Sybase, Informix va Interbase ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlariga ruxsatni (dostup) amalga oshiradi. Mahsulotni ikki xil varianti mavjuddir:

1. «Mijoz - Server» (Delphi Client-Server).

2. Delphi for Windows.

«Mijoz - Server» varianti quyidagi imkoniyatlarga ega:

- SQLLinks: Oracle, Sybase, Informix va InterBase larga ruxsat beruvchi (dostup) maxsus drayverlarning mavjudligi;
- InterBase lokal serveri: lokal tarmoqqa ulanmagan kompyuterlar uchun ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari dasturlarini tuzish;
- Report Smith Client/Server Edition: SQL – server uchun hisobotlar generatorining mavjudligi;
- Visual Query Builder – SQL so'rovlarini tuzish modullarini mavjudligi.


Delphi for Windows varianti personal kompyuterlar uchun dasturlar tuzish hamda dBase va Paradox ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarida dasturlar tuzish imkoniyatlariga ega. Shuningdek, shaxsiy DLL komponentlarini tuzish imkoniyati ham mavjuddir.

1.2 Delphi dasturni ishga tushirish, dasturni piktogrammalari va menyulari haqida tushincha

Delphi dasturlash tilini ishga tushirishning bir nechta usullari mavjud:


- foydalanuvchining ish stolidagi yorliq yordamida;
- quyi masalalar paneli yordamida;
- bosh menyu yordamida.

Delphi dasturini bosh menyu yordamida ishga tushurishni ko`rib chiqaylik. Agar siz ishlaydigan kompyuterda dastur o`rnatilgan bo`lsa, quyidagicha bo`ladi: “Пуск”+“Программы” + “Borland Delphi 7” buyrug`i tanlanadi.



1-rasm.Delphi dasturlash tilini yuklash

Delphi dasturlash tili ishga tushgandan so`ng quyidagi oyna hosil bo`ladi.



2-rasm.Delphi 7 oynasining to`liq ko`rinish


Dasturning umumiy ko`rinishi yuqori sarlavha satri, menyular satri, uskunalar va komponentalar majmui, ob'ektlar inspektori, obektlar daraxti va ishchi sohadan tashkil topgan. Menyular satrining ko`rinishi odatdagi Office dasturlarini singari sarlavha satridan keyin joylashgan. Delphi dasturining o`n bitta menyusi bo`lib ular quyidagilardir:



3-rasm.Menyular satri

Delphi asosiy menyu bandlarining vazifalari Microsoft office standart dasturlarining menyu bandlari vazifalaridan deyarli farqlanmaydi va ulardan foydalanish tartibi aynan saqlanadi.


Asboblari paneli va komponentalar ro`yxati Delphi dasturlash tilida komponentalar bajaradigan vazifalariga qarab guruhlariga ajratilgan. Har bir guruh komponentalari o`zining nomiga ega bo`lgan alohida bo`limda joylashgan.



4- rasm.Chap tomonda uskunalar paneli va o`ng tomonda komponentalar palitrasi


Ko`rinmay turgan bo`lim (komponenta) larni ochish uchun  tasmadan foydalaniladi.

Ob'ektlar daraxti. Ob'ektlar daraxtining ko`rinishi quyidagi tasvirda aks ettirilgan.




5-rasm.Ob'ektlar daraxti

Ob'ektlar inspektori. Ob'ektlar inspektorining ko`rinishi qo`yidagi tasvirda aks ettirilgan.



6-rasm.Ob`ekt xossalarini tahrirlash oynasi

Formani loyihalashtiruvchi oyna quyidagi rasmda tasvirlangan.



7-rasm.Forma oynasi

Standard jixozlar palitrasi quyidagi komponentalardan iborat:



8-rasm.Komponentalar

-  **Popup Menu** – formada kontekstli menyu hosil qiladi;
-  **Memo** – formada ko`p satrli matn maydonini hosil qiladi;
-  **Edit** – formada bir satrli matn kiritish maydonini hosil qiladi;
-  **Label** – formada yozuv hosil qiladi;
-  **Button** – formada birorta amalni bajaradigan tugmachani hosil qiladi;
-  **Check Box** – formada o`chirish yoki belgilash vazifasini hosil qilish;
-  **Radio Button** – bir nechta variantdan birortasini tanlash imkoniyatini yaratadi
-  **List Box** – formada bir nechta satrlar ro`yxatini tuzish imkonini yaratadi;
-  **Combo Box** – bir nechta satrdan birortasini tanlash imkoni hosil qilish;
-  **Scroll Bar** – formada siljitish vositasini yaratishda ishlatiladi;
-  **Radio Group** – formada bir nechta variantdan birortasi tanlanadigan ro`yxatni tuzish;
-  **Panel** – formada panelni yaratish uchun foydalaniladi.

Additional, Dialogs komponentlar palitrasi. Additional komponentlar palitrasi quyidagi ob'ektlardan tuzilgan



9-rasm.Komponentalar palitrasi

 - **TBitBtn** - TButton ob'ektiga o`xshash ob'ektdir. Bundan tashqari ob'ekt aniqlangan ko`rinishga ega. Masalan: *bkOK*, *bkClose* va boshqalar. Bunda xususiyatdagi **glyph** qatori orqali tugmachaga kerakli rasmni berish mumkin;

 - **TSpeedButton** – SpeedBar panelidagi tugmachalarga o`xshash tugmachalar hosil qilish uchun ishlatilib, tugmachaga xususiyatdagi **glyph** qatori orqali odatda rasmlar joylashtirish mumkin;

 - **TTabSet** - ko`p varaqli oynalar tashkil etish uchun ishlatiladi. Oynani nomini xususiyatdagi (svoystva) *Tabs* qatori orqali yozish mumkin. Masalan: `TabSet1.Tabs:=Notebook1.Pages`

Bir varaqdan ikkinchi varaqqa o`tish uchun hodisadagi (sobitiya) *OnClick* qatoriga `TTabSet1.TabIndex` so`zlari yoziladi;

 - **TNoteBook** – ko`p varaqli muloqotli oynalarini hosil qilish uchun ishlatiladi. Har bir varaqqa o`ziga xos ob`ektni joylashtirish mumkin. Bu *TTabSet* bilan birgalikda ishlatiladi;

 - **TTabbedNoteBook** – ko`p varaqli muloqotli yig`ma oynalar hosil qilish uchun ishlatiladi. Bunda varaqlar nomi yuqorida yozilgan bo`ladi;

 - **TMaskEdit** - *TEdit* ob`ektining analogidir. Bunda kiritiladigan matnning (belgini) formatini ham ko`rsatish mumkin. Ma`lumotlarning formati xususiyatdagi *Edit Mask* qatori orqali aniqlanadi. Bunda sana, valyuta va boshqa formatlarni berish mumkin;

 - **TOutline** – bog`langan ma`lumotlarni ierarxik ko`rinishda tasvirlash uchun ishlatiladi. Masalan: kataloglar daraxti ko`rinishida;

 - **TStringGrid** - Matnli ma`lumotlarni jadval ko`rinishida tasvirlashni hosil qilish uchun foydalaniladi. Jadvaldagi har bir elementga o`tish, xususiyatdagi *Cell* qatori orqali amalga oshiriladi;

 - **TDrawGrid** - ixtiyoriy tipdagi ma`lumotlarni jadval ko`rinishida tasvirlashni hosil qilish uchun ishlatiladi. Jadvaldagi har bir elementga o`tish, xususiyatdagi *CellRect* qatori orqali amalga oshiriladi;

 - **TLevel** – relefli tasvir hosil qilish uchun ishlatiladi;

 - **THeader** – jadvallarning sarlavhasining o`lchami o`zgaruvchan tarzda tasvirlash uchun ishlatiladi;

 - **TScrollBar** – davomini ko`rish tasvirini hosil qilish, ya`ni yugurtirish yo`lakchalarini hosil qilish uchun ishlatiladi.

Dialogs komponentlar palitrasi

Bu palitrada Windowsning standart dialogli oynalarini tashkil qilish ob`ektlari joylashgandir. Bu ob`ektlar dasturda ko`rinmas xususiyatiga ega bo`lib, bu dialogli oynalarni chiqarish quyidagicha bo`lishi mumkin.



10-rasm.Dialogs komponentlar palitrasi

Bu ob`ektlar quyidagilardir:

 - **TOpenDialog** - faylni ochish dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;

 - **TSaveDialog** – faylni saqlash dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;

 - **TFontDialog** - shriftni tanlash va sozlash dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;

 - **TColorDialog** – rangni tanlash dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;



- **TPrintDialog** – bosmaga (pechat) chiqarish dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;



- **TPrinterSetupDialog** – printerni sozlash dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;



- **TFindDialog** – so`zni qidirish dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi;



- **TReplaceDialog** – so`zni boshqa so`zga almashtirish dialogli oynasini hosil qilish uchun ishlatiladi.

Delphi 7.0 dasturlash tizimining grafik komponentlari

Canvas ob'ekti xususiyati

Delphi dasturlash tizimining vizual komponentlar kutubxonasi bir qancha grafiklar hosil qilish imkoniyatini beruvchi ob'ektlarga egadir. Bulardan ayrimlari: *TImage*, *TShape* va *TBevel* ob'ektlari.



- **TImage** – bu ob'ekt formaning ixtiyoriy joyiga grafik tasvirni joylashtirish imkonini beradi. Bunda .bmp, .ico, .wmf formatidagi rasmlar tasvirlanadi. Ob'ekt Additional komponentlar palitrasida joylashgan. Rasmlarni ob'ektlar inspektori xususiyatidagi Picture qatori orqali qo'yish mumkin. Agar bu rasmlar formaga joylashtirilgan bo'lsa, u holda .exe kengaytmali fayli katta hajmga ega bo'lishi mumkin. Rasmlarni dastur bajarilishi davomida ham chiqarish mumkin. Buning uchun quyidagi qatorlar yozilishi kerak, ya'ni: `If OpenFileDialog1. Execute then Image1. Picture.LoadFromFile (OpenDialog1. File Name);`

Bu ob'ektning ob'ektlar inspektori xususiyatidagi Center va Stretch qatorlari eng muhim ahamiyatga ega bo'lib, ikkala qator ham Boolean tipiga mansubdir. Agar Center qatorida true bo'lsa, u holda rasm formadagi TImage ob'ektining o'rtasida joylashadi. Agar Stretch qatorida true bo'lsa, u holda rasm formadagi TImage ob'ekti o'lchamini butunligicha egallab turadi.



- **TShape** - oddiy grafik tasvirlarni formada hosil qilish uchun ishlatiladi, ya'ni doira, kvadrat, to'rtburchak va shunga o'xshash geometrik shakllar. Ob'ekt xususiyatidagi Pen qatori orqali chizma chiziqlarining rangi va ko'rinishini ko'rsatish mumkin. Brush qatori orqali chizma ichining rangi ko'rsatiladi. Xususiyatdagi bu amallarni dasturni bajarish davomida ham amalga oshirish mumkin.

Canvas xususiyati. Ko'pgina grafik ob'ektlar o'ziga xos Canvas xususiyatiga ega. Canvas xususiyatida Pen (qalam), Brush (buyovchi qalam), Font (shrift) lar mavjud. Shuningdek, Draw, TextOut, Arc, Rectangle va boshqa operatorlarga ega. Endi Canvas xususiyatining ayrimlarini ko'rib chiqaylik:

Brush – bo'yovchi qalam. Bu ham o'zining quyidagi xususiyatlariga ega:

Bitmap - ekranni 8*8 o'lchamidagi qismi rangini o'zgartiruvchi;

Color – ichki soha;

Style – ichki sohani bo'yash uslubi;

Pen – qalam, chiziqning tashqi ko'rinishini tanlash uchun;

Color – chiziq rangi;

Style - chiziqning ko`rinishi, ya'ni chiziq, punktir, shtrix va boshqalar;

Width - chiziqning qalinligi;

PenPos – qalamning o`rni (pozitsiyasi). Qalamning o`rnini *MoveTo* buyrug`i orqali ko`chirish mumkin;

Pixels - tasvirlash elementlaridan tashkil topgan ikki o`lchamli massivdir.

Endi Canvas usullarini ko`rib chiqamiz:

Oddiy chizmalarni chizish uchun: Arc, Chord, LineTo, Pie, Polygon, Polyline, Rectangle, RoundRect buyruqlari ishlatiladi.

Canvas xususiyatida rasmlarni aks ettirish uchun: Draw va StretchDraw buyruqlaridan foydalaniladi. Canvas xususiyatida matnlarni aks ettirish uchun: TextOut va TextRect buyruqlaridan foydalaniladi. TextRect buyrug`i orqali ko`rsatilgan to`rtburchak ichida matnni chiqarish mumkin. Matnning uzunligi va balandligi TextWidth va TextHeight funktsiyalari orqali ko`rsatiladi.

1.3.Dasturlash tili elementlari

Hozirgi kunda juda ko'p algoritmik tillar mavjud. Bu tillar ichida Pascal tili universal tillardan biri bo'lib, boshqa tillarga qaraganda imkoniyatlari kengroq tildir. So'ngi yillarda Pascal tili juda takomillashib, tobora ommaviylashib bormoqda.

Delphi dasturlash vositasi Turbo Pascal tilining rivoji bo'lgan Object Pascal tilini ishlatadi. Hozirgi kunda bu tilga juda ko'plab yangiliklar kiritilgan, uning imkoniyatlari yanada kengaytirilgan, shu sabab bu tilni Delphi dasturlash tili deb ham atash mumkin.

Delphi dasturlash tili ham boshqa dasturlash tillari kabi o'z alfavitiga va belgilariga ega. U 26 bosh lotin harflarini, 0 dan 9 gacha bo'lgan arab raqamlarini va quyidagi belgilarni ishlatadi: bo'shliq belgisi; 4 ta arifmetik amallar + , - , * , / ; mantiqiy amallarni bajarish uchun <, >, <=, >= , <>, = belgilarini ishlatadi. Bulardan tashqari vergul, nuqta, ikki nuqta, kichik qavs, katta va o'rta qavslar. Dasturda izohlar istalgan joyda berilishi mumkin. Ular figurali qavs ichida yoziladi.

Masalan. Program ad; { Bu dastur nomi }

O'zgaruvchilarni tavsiflash

Ma'lumki, har qanday qiymat yoki belgi bilan ish ko'rish uchun eng avvalo ularga xotirada joy ajratish zarur bo'ladi. Buning uchun ishlatilishi zarur bo'lgan o'zgaruvchi yoki o'zgarmaslar Pascal tilida e'lon qilinishi kerak. Ko'pchilik hollarda dasturlarda o'zgarmas qiymatlar bilan ish ko'rishga to'g'ri keladi. Masalan, $n=20$, $e=2.71$ kabi sonlar Pascal va Delphi tilida quyidagicha e'lon qilinadi.

Const pi=3.14; n=20; e=2.71;

Umumiy holda o'zgaruvchilar var (variable) xizmatchi so'zi orqali qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatiga qarab turlarga bo'linadi. Butun sonlar ishlatilishi chegarasiga qarab turlicha e'lon qilinishi mumkin:

- byte 0 dan 255 gacha bo'lgan diapozondagi butun sonlar ;
- shortint -128 dan 127 gacha bo'lgan diapozondagi butun sonlar;
- word 0 dan 65535 gacha bo'lgan diapozondagi butun sonlar;
- integer -32768 dan 32767 gacha bo'lgan diapozondagi butun sonlar;
- longint -2147483648 dan 2147483648 gacha bo'lgan diapozondagi butun sonlarni qabul qiladi.

Var I,j : integer;

Haqiqiy sonlar uchun qo'yilgan masala yechimning aniqlik darajasiga qarab quyidagi operatorlar yordamida identifikatorlar e'lon qilinadi:

1-jadval

Identifikator turi	Qiymatlar oralig'i	Aniqlik darajasi	Egallagan hajmi
Real	$2.9e^{-39} .. 1.7e^{38}$	11 – 12	6 bayt
Single	$1.5e^{-45} .. 3.4e^{38}$	7 – 8	4 bayt
Double	$5.0e^{-324} .. 1.7e^{308}$	15 – 16	8 bayt
Extended	$3.4e^{-4932} .. 1.1e^{4932}$	19 – 20	10 bayt

var x,y:real;

Mantiqiy o'zgaruvchilar esa Boolean xizmatchi so'z yordamida e'lon qilinadi. Bu tipdagi o'zgaruvchi faqat rost – true yoki yolg'on – false qiymatlarini qabul qiladi.

Belgilar Char xizmatchi so'z yordamida uzunlikka ega bo'lgan satrlar esa string operatori yordamidja aniqlanadi.

Var s: char;

d: string;

begin

end.

Pascal va Delphi algoritmik tilida tuzilayotgan har qanday dastur ma'lum bir strukturaga ega bo'ladi va bu tildagi eng kichik dastur quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

Begin

(Dasturning asosiy tanasi)

end.

Kompyuterda biror masalani yechish uchun boshqa dasturlarga, tashqi qurilmalarga murojaat qilish mumkin, o'zgarmas yoki yangi o'zgaruvchilarning ko'rinishini e'lon qilish mumkin va hakoza.

Pascal va Delphi tilidagi dasturning umumiy strukturasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Program- Programma nomini berish;

Uses - Ishlatilayotgan kutubxona bo'limlari (modullari);

Label - Dasturning asosiy qismida ishlatilayotgan belgi (metka) larni e'lon qilish;

Const - O'zgarmaslarni e'lon qilish;

Type - Yangi o'zgaruvchilarning turini muomalaga kiritish;

Var - Asosiy dasturda muomalada bo'ladigan o'zgaruvchilarni e'lon qilish;

Protseduralarni e'lon qilish;

Begin

Dasturning asosiy qismi;

End.

Demak, har qanday dastur yuqorida berilgan asosiy tuzilmaning xususiy holi bo'lishi mumkin va ular o'z navbatida Delphi tiliga xos bo'lgan asosiy tushunchalar asosida hosil qilinadi.

Standart funksiyalar

2-jadval

t/r	Matematik ko'rinishi	Pascal tilida yozilishi
1	$ x $	abs(x)
2	$\sqrt{x}$	sqrt(x)
3	x^2	sqr(x)
4	$\sin x$	sin(x)
5	$\cos x$	cos(x)
6	$\ln x$	ln(x)

7	e^x	exp(x)
8	a^x	exp(x*ln(a))
9	x ni yaxlitlash	Round(x)
10	x ning butun qismi	Trunk(x)

Simvollar uchun ishlatiladigan funksiyalar:

Ord(x) – x belgining tartib nomerini aniqlaydi;

Pred(x) – x dan oldingi belgining tartib nomerini aniqlaydi;

Succ(x) – x dan keyingi belgining tartib nomerini aniqlaydi;

Keltirilgan funksiyalar Pascal tilida maxsus funksiyalar deb ataladi.

Tilining bir necha kalit soʻzlari:

And-va;

Array –massiv;

Begin-boshlash;

Case-variant;

Const-oʻzgarmas;

Div –qoldiqsiz;

Do –bajarish;

Downto –gacha kamaytirish;

Else –aks holda;

End –tamom;

File –fayl;

For –uchun;

Fuktion –funksiya;

Goto –ga oʻtish;

If –agar;

In –ga tegishli;

Label-belgi;

Mod-butun qoldikli boʻlishdagi qoldiq.

Oʻzgartirish funksiyalari:

Chr(n) n kodli simvol;

IntToStr(k) Butun k ni tasvirlovchi satr;

FloatToStr (n) Haqiqiy n tasvirlovi satr;

FloatToStrF(n, f , k,m) Haqiqiy n tasvirlovi satr. Bunda: f – format; k – aniqlik; m – kasr qismidagi raqamlar soni;

StrToInt (s) Satrni butun songa oʻtkazish ;

StrToFloat (s) Satrni haqiqiy songa oʻtkazish;

Round (n) Haqiqiy sonni yaxlitlash;

Trunc (n) Haqiqiy son kasr qismini olib tashlash;


Frac(n) Kasrli sonning kasr qismi;

Int (n) Sonning butun qismi.

II-BOB. DELPHI DASTURLASH TILIDA MATEMATIK MASALALARNI YECHISH

2.1. Chiziqli masalalarga oid dasturlar tuzish

Chiziqli tuzilishga ega bo'lgan algoritmlarda ko'rsatmalar yozilish tartibida bajariladi. Ularning blok – sxemasi ishga tushirish, to'xtatish, kiritish-chiqarish jarayoni bloki hamda avvaldan ma'lum jarayon bloklari yordamida tuzilib, bir chiziq bo'ylab ketma-ket joylashgan bo'ladi. Ya'ni hech qanday shart talab qilmaydigan algoritmgacha chiziqli algoritm deb qarladi. Uni hisoblash dasturining blok sxemasi quydagicha bo'ladi.



1-chizma. Chiziqli algoritmlashning blok sxemasi

Chiziqli tuzilishdagi algoritmni tuzish masalani yechish uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni tashkil qiluvchi o'zgaruvchilar nomi, ularning turi va o'zgarish ko'lamini aniqlashdan boshlanadi. Boshlang'ich ma'lumotlar aniqlangandan so'ng, oraliq va yakuniy natijalar, o'zgaruvchilarining nomlari, turlari va mumkin bo'lsa, o'zgarish ko'lamini aniqlash kerak. Yuqoridagi aytilganlarni tushinish uchun quyidagi misollarni keltiramiz:

1 – m i s o l. Ikki sonning yig'indisini hisoblash dasturini tuzamiz.

$$S=a+b; (1)$$

Ikki sonni yig'indisini hisoblash dasturini avval Turbo Pascal tilida, so'ngra esa Delphi dasturlash tilida tuzamiz. Bu bilan Delphi va Pascal dasturlash tillari orasidagi farqlarni ham ko'rib chiqamiz. Berilgan masalani dastlab Pascal dasturlash tilida tuzamiz.

Program ul;

var

a,b,s:real;

begin

write('a='); read(a);

write('b='); read(b);

s:=a+b;

write('s=',s);

end.

Dastur kodini kiritib [Ctrl+F9] klavishini bosish orqali dastur ishga tushadi. Natijada “a= ”, “b=” kabi yozuv paydo bo`ladi, siz ixtiyoriy 2 ta sonni kiritasiz va [Alt+F5] tugmalar kombinatsiyasidan foydalanib natija olasiz. Bu ishlarni Pascal dasturlash muhitida bajarish mumkin.


Yuqorida bayon etilgan misolni Delphi 7.0 dasturlash tili muhitida dasturini tuzamiz. Dastur tuzish Pascal tiliga asoslanib Delphi dasturlash tilida dastur kodini kiritish kerak. Pascal tili bilan Delphi dasturlash tillari orasida ishlatiladigan umumiy operatorlar va belgilar to`plamining ba`zilarini ko`rib chiqamiz: o`zgarmaslar **Const**, o`zgaruvchilar **Var**, qiymatlar tipi **Real**, **Integer**, **Char**, **String**, **Boolean**, matnda ishlatiladigan turli xil belgilar, arifmetik amallar, standart funksiyalar, shartli operatorlar va boshqalar.

Pascal tilida “**Read**” kiritish operatoridan foydalansak, Delphi dasturida esa “**strtofloat**” kiritish operatoridan foydalanamiz. Yoki chiqarish operatori “**Write**” o`rniga “**showmessage, labeln.caption**”. kabi bog`lanishlar mavjud.

Yuqoridagi misolni Delphi dasturlash tilida tuzadigan bo`lsak. Delphi dasturini yuklab yaratiladigan dasturni loyahasini tuzib olish kerak, aniqrog`i formaga kerakli tugmalar, menyular, yozuvlar va shunga o`xshash komponentlarni joylashtirib olgach, shu yaratgan komponentlarni har biriga tegishli buyruqlarni kiritish zarur.

Keltirilgan masalani Delphi dasturlash tilida dasturini tuzishimiz uchun, Delphi dasturlash tilida quyidagi bosqichlarni amalga oshiramiz:


1. Dasturni ishga tushiramiz



11-rasm. Delphi dasturlash tilini dasturlash oynasi

2. Hosil bo`lgan oynada matnni ekranga joylash uchun Delphi dasturlash tilining Standard komponentalar palitrasidan (uskunalar panelidan) “A” piktogrammasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda matn

joylashtirilishi lozim boʻlgan joy ajratiladi. Natijada **Label1** matn maydoni hosil qilinadi hamda parametrlar va xossalar boʻlimidan foydalanib kerakli matn teriladi.



12-rasm. Dasturlash oynasida matn kiritish qatori

3. Matnga ishlov berish uchun (masalan, kattalashtirish yoki kichiklashtirish; kursiv yoki qalin qilish va boshqa) ya'ni unga o'zgartirish kiritish uchun kerakli xossa tanlanib ular o'zgartiriladi. Masalan, kiritilgan matnni kattalashtirish yoki kichiklashtirish uchun oldin matn maydoni ajratilib, keyin Font xossasiga kiriladi va muloqot darchasidan shrift, uning o'lchami va rangi belgilanib "Ok" tugmasi tanlanadi.

4. **Label komponentasi.** Label komponentasi nafaqat ma'lumotlarni ekranga joylashtirish uchun xizmat qiladi, balki dastur natijalarini chiqarishda ham ishlatish mumkin. Buning uchun dasturda `Label.n.caption='Dastur natijasi';` buyrug'i berilishi kerak. Misol, `label5.Caption:='s='+floattostr(s);` bu yerda `s:String` – matn o'zgaruvchisi.


5. **Edit kiritish qatori.** Edit kiritish qatori matnni bir qatordan kiritish va uni tahrirlash uchun ishlatiladi. Matn kiritish qatorini ekranga joylash uchun Delphi ning Standard palitrasidan “**ab**” piktogrammasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda matn kiritilishi lozim boʻlgan joy ajratiladi. Natijada **Edit1** matn kiritish maydoni hosil qilinadi. Matnni kiritish dastur ishchi holatiga oʻtilganda bajariladi.



13-rasm. Dasturlash oynasida “Edit” kiritish qatori

Matn qatoriga kiritilgan ma’lumot faqat matn, ya’ni String (qator) bo’lib hisoblanadi. **Edit** kiritish qatorida kiritilgan ma’lumotni dasturda o’qib va uni raqamga o’tkazish uchun ko’p hollarda Val funksiyasidan foydalaniladi. Bu funksiya Turbo Pascal da quyidagicha yoziladi. **Val(Edit1.Text,a,cod)** – bu yerda **a: Real;** - o’zgaruchisi bo’lib, **Edit1.Text** maydonidagi ma’lumotni raqam qilib o’zlashtiradi. Cod: Integer; deb elon qilinadi.


Edit2 matn kiritish maydoni ham xuddi shu tartibda bajariladi.



14-rasm. Dasturlash oynasida “Edit” kiritish qatori


5. **Button tugmachasi.** Bu tugmacha bosilishi natijasida kutilishi lozim bo'lgan jarayonlar (masalan, hisoblashlar yoki bajarilishi lozim bo'lgan operatsiyalar) bajarilishga xizmat qiladi.

Button tugmachasini ekranga joylash uchun Delphi ning Standard palitrasidan “Ok” piktogrammasi belgilanib forma ustiga kelinadi va sichqoncha tugmachasini bosgan holda tugmacha qo'yilishi lozim bo'lgan joy ajratiladi. Natijada “**Button1**” tugmachasi hosil qilinadi. Tugmacha nomi **Caption** xossasidan foydalanib o'zgartiriladi.



15-rasm. Dasturlash oynasida “Button” tugmasinidan foydalanish

6. Dasturdagi hisoblash jarayonlarini tashkil qilish uchun “**Button1**” (**hisoblash**) hosil qilingan tugmachani ikki marta tez-tez bosish bilan Unit1.Pas dastur kodlarini tahrirlash darchasiga o'tilib, u yerdan modul ichiga kerakli operatorlarni yozish bilan amalga oshiriladi.



16-rasm. Dasturkitirish maydoni

Biz yuqorida ikki sonni yig`indisini Turbo Pascal tilida quyidagicha tuzgan edik :

Program ul;

var

a,b,s:real;

begin

write('a='); read(a);

write('b='); read(b);

s:=a+b;

write('s=',s);

end.

Delphi dasturlash tilida esa quyidagicha bo`ladi:

var

a,b,s:real;

begin

a:=strtofloat(edit1.Text);

b:=strtofloat(edit2.Text);

s:=a+b;


label4.Caption:='s='+floattostr(s);

end;

end.


Turbo Pascal tilida o`zgaruvchilarni kiritish Write('a='); read(a); ko`rinishda bo`lsa, Delphi dasturida esa a:=strtofloat(edit1.Text); ko`rinishda bo`ladi. Yoki ma'lumotni chop etish Turbo Pascal tilida Write('s=',s); buyru'i berilsa, Delphi dasturida esa quyidagicha bo`ladi label4.Caption:='s='+floattostr(s);

7. Dasturlash maydoniga, dastur kodini kiritib bo`lgandan so`ng, F12 tugmasini tanlaymiz natijada quyidagi ko`rinishga keladi.




17-rasm. Dasturlash oynasining ko`rinishi

8. Hosil bo'lgan dasturni ishga tushirish uchun:
birinchi marta



ikkinchi marta



18-rasm. Tuzilgan dasturni kompyuter xotirasiga saqlash na'munasi

9. Buyruqlari orqali kompyuter xotirasiga saqlaymiz. Yuqoridagi ketma-ketlikdan so'ng, dasturni kompilatsiya qilishimiz kerak. Kompilatsiya ishini asboblar panelidagi quyidagi




tugmacah yordamida amalga oshiramuz.

Kompilatsiyalanganidan so'ng, oynaning ko'rinish holati quyidagicha bo'ladi.

19-rasm. Ikki sonni hisoblash dastur oynasi

Izoh : Har qanday ikki sonni yig'indisini hisoblash uchun, hosil qilingan dastur maydoniga yangi qiymat kiritish orqali natijani olishimiz mumkin.

Agar dasturning biror joyida sintaksis xatolik bo'lsa, quyidagi ko'rinishga o'xshash xatolik ko'rsatiladi.



20-rasm. Dasturda xatoliklar na'munasi

Tashkil qilingan modulning to'liq ko'rinishini keltiramiz.

```
unit Unit1;
interface
uses
  Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms,
  Dialogs, StdCtrls;
type
  TForm1 = class(TForm)
    Edit1: TEdit;
    Edit2: TEdit;
    Label1: TLabel;
    Label2: TLabel;
    Label3: TLabel;
    Label4: TLabel;
    Button1: TButton;
  procedure Button1Click(Sender: TObject);
  private
    { Private declarations }
  public
    { Public declarations }
```


```

end;
var
  Form1: TForm1;
implementation
{$R *.dfm}
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var
  a,b,s:real;
begin
  a:=strtofloat(edit1.Text);
  b:=strtofloat(edit2.Text);
  s:=a+b;
  label4.Caption:='s='+floattostr(s);
end;
end.

```

Yuqorida keltirilgan dasturdan foydalanib istalgan ikki sonni yig`indisini hisoblashimiz mumkin.

2. - m i s o l. Bitta oynada ikki sonning yig`indisini, ayirmasini, ko`paytmasini va bo`linmasini hisoblash dasturini tuzing.



21-rasm. Arifmetik amallarni bajarish oynasi

Izoh : Har qanday ikki sonni yig`indisini, ayirmasini, ko`paytmasini va bo`linmasini hisoblash uchun, hosil qilingan dastur maydoniga yangi qiymat kiritish orqali natijani olishimiz mumkin.

Formani loyihalashtirish oynasini yuqoridagi masaladan foydalangan holda, **Label1, Label2, Label3, Label4, Edit1, Edit2 , Button1, Button2, Button13, Button4** tugmalarni hosil qilamiz, parametrlar va hodisalar bo`limidan tugmalarga kerakli ma'lumotlarni kiritamiz (masalan. Button1 tugmasiga Yig`indi. v..x.k.)..**“Yig`indisi ”** belgisi yozilgan tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodini kiritamiz:

```
var  
a,b,s:real;  
begin  
a:=strtofloat(edit1.Text);  
b:=strtofloat(edit2.Text);  
s:=a+b;  
label4.Caption:='s'+floattostr(s);  
end;
```

“Ayirmasi” belgisi yozilgan tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodini kiritamiz:

```
var  
a,b,s:real;  
begin  
a:=strtofloat(edit1.Text);  
b:=strtofloat(edit2.Text);  
s:=a-b;  
label4.Caption:='s'+floattostr(s);  
end;
```

“Ko`paytmasi” belgisi yozilgan tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodini:

```
var  
a,b,s:real;  
begin  
a:=strtofloat(edit1.Text);  
b:=strtofloat(edit2.Text);  
s:=a*b;  
label4.Caption:='s'+floattostr(s);
```

“Bo`linmasi” belgisi yozilgan tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dastur kodini:

```
var  
a,b,s:real;  
begin  
a:=strtofloat(edit1.Text);  
b:=strtofloat(edit2.Text);  
s:=a/b;  
label4.Caption:='s ni qiymatini hisoblang'+floattostr(s);  
end;  
end.  
kiritamiz.
```

Yuqorida tuzilgan dasturlar modulining to`liq kodini keltiramiz.

```
unit Unit1;
interface
uses
Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms,
Dialogs, StdCtrls;
type
    Tform1= class(TForm)
        Label1: TLabel;
        Label2: TLabel;
        Label3: TLabel;
        Edit1: Tedit;
        Edit2: Tedit;
        Button1: Tbutton;
        Button2: Tbutton;
        Button3: Tbutton;
        Label4: TLabel;
        procedure Button1Click(Sender: TObject);
        procedure Button2Click(Sender: TObject);
        procedure Button3Click(Sender: TObject);
    private
    {Private declarations}
    public
    { Public declarations }
    end;
var
    Form1: TForm1;
implementation
{$R *.dfm}
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var
a,b,s:real;
begin
a:=strtofloat(edit1.Text);
b:=strtofloat(edit2.Text);
s:=a+b;
label4.Caption:='s='+floattostr(s);
end;
procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
var
a,b,s:real;
begin
a:=strtofloat(edit1.Text);
b:=strtofloat(edit2.Text);
s:=a-b;
```

```

label4.Caption:='s'+floattostr(s);
end;
procedure TForm1.Button3Click(Sender: TObject);
var
a,b,s:real;
begin
a:=strtofloat(edit1.Text);
b:=strtofloat(edit2.Text);
s:=a*b;
label4.Caption:='s'+floattostr(s);
end;
procedure TForm1.Button4Click(Sender: TObject);
var
a,b,s:real;
begin
a:=strtofloat(edit1.Text);
b:=strtofloat(edit2.Text);
s:=a/b;
label4.Caption:='s'+floattostr(s);
end;
end.

```

3 - m i s o l. Bitta oynada konusning yon sirti, to`la sirti, va hajmini hisoblash dasturini hosil qiling:

1. $S_{yon} = \pi Rl$;
2. $S_{to`la} = S_{asos} + S_{yon} = \pi R(R + l)$;
3. $V = \frac{1}{3} \pi R^2 h$.

Dastur kodi va oynani umumiy ko`rinishini keltiramiz:

```


unit Unit1;
interface
uses
  Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms,
  Dialogs, StdCtrls;
type
  TForm1 = class(TForm)
    Label1: TLabel;
    Label2: TLabel;
    Edit1: TEdit;
    Edit2: TEdit;
    Edit3: TEdit;
    Label3: TLabel;

```

```

Label4: TLabel;
Button1: TButton;
Button2: TButton;
Button3: TButton;
procedure Button1Click(Sender: TObject);
procedure Button2Click(Sender: TObject);
procedure Button3Click(Sender: TObject);
private
  { Private declarations }
public
  { Public declarations }
end;
var
  Form1: TForm1;
implementation
{$R *.dfm}
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
const pi=3.14;
var S,R,L:real;
begin
  R:=strtofloat(edit1.text);
  L:=strtofloat(edit2.text);
  S:=R*pi*L;
  showmessage('Konus yon sirti S='+floattostr(S)+' ga teng`');
end;
procedure TForm1.Button2Click(Sender: TObject);
const pi=3.14;
var S,R,L:real;
begin
  R:=strtofloat(edit1.text);
  L:=strtofloat(edit2.text);
  S:=R*pi*(R+L);
  showmessage('Konus to`la sirti S='+floattostr(S)+' ga teng`');
end;
procedure TForm1.Button3Click(Sender: TObject);
const pi=3.14;
var H,V,R,L:real;
begin
  R:=strtofloat(edit1.text);
  L:=strtofloat(edit2.text);
  H:=strtofloat(edit3.text);
  V:=(1/3)*R*R*pi*H;
  showmessage('Konus Hajmi V='+floattostr(V)+' ga teng`');
end;
end.

```



22-rasm. Bitta oynada konusning yon sirti, to`la sirti, va hajmini hisoblash dasturi

Izoh : Konusning yon sirti, to`la sirti, va hajmini hisoblash uchun, hosil qilingan dastur maydoniga yangi qiymat kiritish orqali natijani olishimiz mumkin.

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. Koordinatalar tekisligida ikkita nuqta orasidagi masofani aniqlovchi dastur tuzing
2. To`rtta son berilgan. Shu sonlarning o`rta arifmetigi va o`rta geometr hisoblovchi dastur tuzing.
3. Quyidagi formula bilan berilgan uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini hisoblash dastur tuzing:

$$R = \frac{a * b * c}{4 * \sqrt{p * (p - a) * (p - b) * (p - c)}}$$

bunda p – uchburchakning yarim perimetri.

4. Uchburchakning a,b,c tomonlari berilgan. Shu uchburchakka ichki chizilgan aylanani radiusini dastur tuzing:

$$r = \frac{\sqrt{(p - a) * (p - b) * (p - c)}}{p}$$

bunda p – uchburchakning yarim perimetri.


5. Uchburchakning uchta burchagi va balandligi orqali uning yuzini hisoblash dastur tuzing:

$$S = \frac{h^2 * \sin(A)}{2 * \sin(B) * \sin(C)}$$


6. Uchburchakning berilgan uchta burchaklari va tomoni orqali uning yuzini hisoblash dastur tuzing:

$$S = \frac{a^2 * \sin(B) * \sin(C)}{2 * \sin(A)}$$

7. Zanjir qarshiligini hisoblash dastur tuzing:



8. Zanjir qarshiligini hisoblash dastur tuzing:



9. ABC uchburchakning ikkita tomoni va ular orasidagi burchagi berilgan. Shu uchburchakning qolgan uchinchi tomoni va ikkita burchagini aniqlash dastur tuzing

$$C^2 = A^2 + B^2 - 2 * A * B * \cos \alpha$$

10. Savdo do`konida kostyum uchun gazlama sotilmoqda. Uning kvadrat metri so`mda baholangan. X metr uzunlikka va Y metr enga ega bo`lgan gazlama narxini hisoblang.

11. Rombning tomoni va o`tkir burchagi berilgan uning yuzasini hisoblang:

$$S = a^2 \sin \alpha, \text{ bunda } a - \text{rombning tomoni, } \alpha - \text{esa o`tkir burchagi}$$

12. Arifmetik progressiyaning birinchi hadi va ayirmasi berilgan. Uning 30-chi hadi va dastlabki 40 ta hadining yig`indisini hisoblash dasturini tuzing.

13. Kesmaning koordinatalari berilgan. Shu kesmani o`rtasining koordinatalarini hisoblash dasturini tuzing.

14. 1 dan **m** gacha natural sonlar berilgan. Shu sonlarning arifmetik progressiya yordamida yig`indisini hisoblash dasturini tuzing.

Quyidagimisollarni hisoblash dasturini tuzing:

$$15. \quad a = \ln(y^{-\sqrt{|x|}}) * (\sin(x) + e^{(x+y)})$$

$$16. \quad b = \sqrt{c (\sqrt{y} + x^2)} * (\cos(x) - |c - y|)$$

$$17. \quad c = \arctg(x) - \frac{3}{5} e^{xy} + 0.5 \frac{|x+y|}{(x+y)^b}$$

$$18. \quad d = \frac{e^{|x-y|} * tg(z)}{\arctg(y) + \sqrt{x}} + \ln(x)$$

$$19. \quad e = \frac{(\cos(x) - \sin(y))^3}{\sqrt{tg(z)}} + \ln^2(x * y * z)$$

$$20. \quad f = y^x + \sqrt{|x| + e^y} - \frac{z^3 * \sin^2(y)}{y + z^2 / (y - x)}$$

21. $g = \frac{1 + \cos(x + y)}{\left| e^x - 2y / (1 + x^2 * y^2) \right|} * x^3 + \arcsin(y)$
22. $h = 2 + \frac{x^2}{\sqrt{2}} + \frac{|y^3|}{\sqrt{2}} + \frac{z^4 (\ln(x) + 1) * \sqrt{2}}{\sqrt{3}}$
23. $j = ((1 + y) * \sqrt{\sin^2(z)} - \frac{|y - x|}{5})^3$
24. $k = \ln \left| (y - \sqrt{|x|}) * (x - \frac{y}{z + x^2 / 4}) \right|$
25. $i = 0.5 * x^5 + 3 * \cos(x + y) + e^{-0.1yz} - \sqrt{|x * y|}$
26. $m = \sqrt{\left| -3 * \lg(x) * \lg(x^4 + y) / e^{-x} + 1 \right|}$
27. $n = \sqrt{e^x + \lg(x) + 1} * (\lg(y) + \cos(x * y) + \sqrt[3]{x})$
28. $p = \frac{\lg(x) - e^{x+y}}{\sqrt{2 + y^2} + |x^3 - \ln(y)|}$

2.2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarga oid dasturlar tuzish

Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturini dasturlash Delphi va Pascal dasturlash tillarida bir xil bo'ladi. Dastlab masalani Pascal tilida ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Pascal tilida tarmoqlanish If operatori bilan amalga oshiriladi. If operatori- bu shartli operator hisoblanadi. Pascal tilida shart - bu mantiqiy turdagi ifoda bo'lib, u faqat «chin»(True) yoki «yolg'on »(False) qiymatni qabul qiladi, quyidagi mantiqiy belgilar ishlatiladi: katta ">",kichik "<", kichik yoki teng "<=", katta yoki teng ">=", teng emas "<>", teng "=". Quyidagilar munosabat amallari yoki taqqoslash amallari ham deyiladi. Quyidagi mantiqiy amallar ishlatiladi:

- NOT-«inkor»;
- AND-«mantiqiy va»;
- OR-«mantiqiy yoki».

Bu mantiqiy amallarning bajarilish natijalari quyidagicha:

3-jadval

Op1	Op2	Op1 AND Op2	Op1 OR Op2	NOT Op1
False	False	False	False	True
False	True	False	True	True
True	False	False	True	False
True	True	True	True	False

Masalan: $(5 < 6) \text{ AND } (6 < 50)$ -mantiqiy ifoda rost (True),
 $(20 > 0) \text{ OR } (20 < 0.5)$ -mantiqiy ifoda rost (True),
 $(10 < 8) \text{ AND } (10 < 15)$ -mantiqiy ifoda yolg'on (False),
 $\text{NOT}(100 > 3)$ -mantiqiy ifoda yolg'on (False).

O'zlashtirish mantiqiy ifodalarni biror bir mantiqiy o'zgaruvchiga yuborish ham mumkin. Masalan: $F := (A < B) \text{ AND } (A < C)$;

Bu erda, agar ikkala shart bajarilgandagina F mantiqiy o'zgaruvchi "chin" (True) qiymatni qabul qiladi. Aks holda "yolg'on" (False) qiymatni qabul qiladi. Pascal tilida shartli o'tish operatorining ikki xil ko'rinishi mavjud:

1. To'liq ko'rinish operatori:

```
If <shart> then Begin
    <shart rost bo'lganda bajariladigan operatorlar>
End
Else
    Begin
    <shart yolg'on bo'lganda bajariladigan operatorlar>
    End;
```

2. Qisqa ko`rinish operatori:

```
If <shart> then Begin
    <shart rost blganda bajariladigan operatorlar>
End;
```

Bu erda IF -agar; then -u holda; else -aks holda ma'nosini bildiruvchi xizmatchi (kalit) so`zlar. Birinchi ko`rinishdagi shartli operatorda, agar shart bajarilsa birinchi Begin va end ichidagi operatorlar ketma-ket bajariladi, aks holda ikkinchi Begin va end ichidagi operatorlar ketma-ket bajariladi. Ikkinchi ko`rinishdagi shartli operator quyidagicha ishlaydi. Agar berilgan shart bajarilsa Begin va end ichidagi operatorlar ketma-ket bajariladi, aks holda ular bajarilmaydi. Agar bajariluvchi operatorlar soni bitta bo`lsa Begin va End so`zlarini yozish shart emas.

Misollar: 1) If A>0 Then Begin C: =1; B:=C+1; End; Else Begin C: =0; B: =4; End;

2) If D=A Then D: =A Else A: =D;

Bir shartli o`tish operatori ichida boshqa ichki shartli operatorlar joylashishi ham mumkin, Masalan: If b1 then a1 else If b2 then a2 Else a3;

Misollar. A: =0.5; B: =-1.7; IF A<B THEN A: =B ELSE B: =A;

Javob: 0.5<-1.7 yolg`on bo`lganligi sababli B:=A operator bajariladi, va bunda A=0,5 va B=0,5 ekenligi kelib chiqadi.

A: =0.1; B: =0.1; C: =0.5; D: =0;

IF (A<B) OR (A>C) THEN D: =B+C ELSE

IF B=A THEN BEGIN D: =C; C: =A; END;

Javob: (0.1<0.1)yoki(0.1>0.5) bu mantiqiy ifoda yolg`on bo`lganligi sababli B=A shart tekshiriladi. Bu shart chin bo`lganligi sabab D=0,5 ga, S=0,1 qiymatlarga teng ekenligi kelib chiqadi.

Yuqorida bayon qilingan fikirlarni tekshirib ko`rish uchun Delphi dasturlash tilida shartli operatorlaridan foydalangan holda bir nechta dasturlar tuzamiz.

4- m i s o l. Berilgan Ikki sonlarni bo`linmasini hisoblash dasturini tuzing

$$C = \left(\frac{a}{b}\right); (1)$$

Dastur kodi va oynani umumiy ko`rinishini keltiramiz:

unit Unit1;

interface

uses

Windows, Messages, SysUtils, Variants, Classes, Graphics, Controls, Forms, Dialogs;

type

TForm1 = class(TForm)

Label1: TLabel;

Label2: TLabel;


Label3: TLabel;

Label4: TLabel;

```

Edit1: TEdit;
Edit2: TEdit;
Button1: TButton;
procedure Button1Click(Sender: TObject);
private
  { Private declarations }
public
  { Public declarations }
end;
var
  Form1: TForm1;
implementation
{$R *.dfm}
procedure TForm1.Button1Click(Sender: TObject);
var a,b,c:real;
begin
a:=strtofloat(edit1.text);
b:=strtofloat(edit2.text);
if b=0 then label5.Caption:='Boluvchi nolga teng`
Else begin c:=a/b;
label5.Caption:='' + floattostr(c);
end;
end;

```



23-rasm. Ikki sonni bo'linmasini hisoblash dasturi

Izoh : Har qanday ikki sonni hisoblash uchun, hosil qilingan dastur maydoniga yangi qiymat kiritish orqali natijani olishimiz mumkin.

5- m i s o l. Geron formulasidan foydalanib uchburchakning yuzasini hisoblash dasturini tuzing.

$$S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$$

1.-bosqich.


1. Dasturni ishga tushiramiz.
2. Standard jihozlar panelidan Label1, Label2, Label3, Label4, Label5 ni tanlaymiz.
2. Parametrlar va xosalar bo`limdan foydalanib Label1 ga “Uchburchakning yuzasini hisoblash”, Label2 ga “a=”, Label3 ga “b=”, Label4 ga “c=”, ni kiritamiz.
3. Standard jihozlar panelidan “Edit1”, “Edit2”, “Edit3” matn kiritish maydonlarini hosil qilamiz.
4. Standard jihozlar panelidan “Button1” tugmasi hosil qilamiz va parametrlar va xossalar bo`limdan foydalanib “Hisoblash” yozuvini hosil qilamiz.

2-bosqich.

1. “Button1” (Hisoblash) tugmasi yordamida dasturlash maydoniga o`tamiz.
2. Dasturlash maydoniga quyidagi dasturni kiriting:

```
var
s,p,a,b,c:real;
begin
a:=strtofloat(edit1.Text);
b:=strtofloat(edit2.Text);
c:=strtofloat(edit3.Text);
if a+b<=c Then
label5.Caption:='bunday uchburchak mavjut emas'+floattostr(s)
Else begin
if a+c<=b Then
label5.Caption:='bunday uchburchak mavjut emas'+floattostr(s)
else begin
if b+c<=a Then
label5.Caption:='bunday uchburchak mavjut emas'+floattostr(s)
else begin
p:=(a+b+c)/2;
s:=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));
label5.Caption:='S='+floattostr(s);
end;
end;
end;
end;
```


Dasturlash maydonining ko`rinishi:



24-rasm. Dasturlash maydonida dastur kiritish

3. Dasturga birorta nom berib saqlang.

Natijada oynaning ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:




25-rasm. Uchburchakni yuzasini hisoblash dasturi

Izoh : Geron formulasi yordamida uchburchakni yuzasini hisoblash uchun, hosil qilingan dastur maydoniga yangi qiymat kiritish orqali natijani olishimiz mumkin.

6-misol. Kvadrat tenglamani yechish dasturi

1.-bosqich.

1. Dasturni ishga tushiramiz
2. Standard jihozlar panelidan Label1, Label2, Label3, Label4, Label5 ni tanlaymiz.
3. Parametrlar va xossalar bo`limdan foydalanib Label1 ga “Kvadrat tenglama”, Label2 ga “a=”, Label3 ga “b=”, Label4 ga “c=”, Label5 ga “Tenglamani ildizlari=” yozuvini kiritamiz.
4. Standard jihozlar panelidan “Edit1”, “Edit2”, “Edit3” matn kiritish maydonlarini hosil qilamiz
5. Standard jihozlar panelidan “Button1”, “Button2”, “Button3” tugmasi hosil qilamiz hamda parametrlar va xossalar bo`limdan foydalanib “Button1”ga “Hisoblash”, “Button2”ga “Yangilash”, “Button3” ga “Chiqish” matnlarni kiritamiz.



26-rasm. Kvadrat tenglamani hisoblash oynasi

2-bosqich.


1. Button1(Hisoblash) yozuvi yozilgan tugma yordamida dasturlash maydonini yuklang (Sichqonchaning chap tugmachasini ikki marta bosgan holda).
3. Dasturlash maydoniga quyidagi dasturni kiriting:

```
var  
a,b,c:Real;  
D:Real;  
X1,X2:Real;  
S1,S2:String[7];  
Code:Integer;  
begin
```

```

Val(Edit1.Text,a,Code);
Val(Edit2.Text,b,Code);
Val(Edit3.Text,c,Code);
If a=0 Then Label6.Caption:='Xato!'
Else Begin
    d:=b*b-4*a*c;
    if d<0 then
        Label6.Caption:='Tenglama ildizlari:mavjut emas'
else begin
x1:=(-b+Sqrt(d))/(2*a);
x2:=(-b-Sqrt(d))/(2*a);
Str(x1:7:3,S1);
Str(x2:7:3,S2);
Label6.Caption:='Tenglama ildizlari:'
+Chr(13)+'x1='+S1
+Chr(13)+'x2='+S2;
end;
end;
end;

```



27-rasm. Dasturlash maydonida dastur kiritish

4. Dasturlash maydonidan “F12” yordamida chiqamiz va Button2 (Yangilash) yozuvi yozilgan tugma yordamida dasturlash maydonini yuklaymiz.
5. Dasturlash maydoniga quyidagi dasturni kiritamiz.

```

Begin
Edit1.Text:= ' ';
Edit2.Text:= ' ';

```

```

Edit3.Text:=’ ‘;
Label5.Caption:=’ ‘;
Edit1.SetFocus;
End;

```

6. Button3 (Chiqish) yozuvi yozilgan tugmaning dasturlash maydoniga quyidagi dasturni kiritamiz.

```

Begin
  Form1.Close;
End;

```

7. Dasturni fayl menyusidagi “Save As...” buyrug`i yordamida biror nom berib kompyuter xotirasiga saqlaymiz.

8. Ikkinchi marta dasturni fayl menyusidagi “Save Project As...” buyrug`i yordamida, biror nom berib kompyuter xotirasiga saqlaymiz.

